

4. Jeffrey Sayera,1, Terry Sunderlandb, Jaboury Ghazoulc, Jean-Laurent Pfundd, Douglas Sheilb,e,f, Erik Meijaardb,g,h, Michelle Ventera, Agni Klintoni Boedhihartonoa, Michael Dayb, Claude Garciab,i, Cora van Oostenj, and Louise E. Buckk. "Ten principles for a landscape approach to reconciling agriculture, conservation, and other competing land uses" SPECIAL FEATURE: PERSPECTIVE. Proceedings of the National Academy of Sciences May 2013.

5. Konvey, GR (1985). Agroekotizim tahlili. *Qishloq xo'jaligi boshqarmasi*, 20(1), 31–55. [https://doi.org/10.1016/0309-586X\(85\)90064-0](https://doi.org/10.1016/0309-586X(85)90064-0)

6. Hilborn.R., Walters.CJ va Ludwig.D. (1995). Qayta tiklanadigan resurslardan barqaror foydalanish. *Ekologiya va sistematikaning yillik sharhi*, 26 (1),45-67. <https://doi.org/10.1146/annurev.es.26.110195.000401>

7. [Mark](#) Antrop Geografiya bo'limi, Gent universiteti, 281 Krijgslaan, S8, B-9000 Gent, Belgiya, marc.antrop@rug.ac.be

8. Родоман Б.Б. «Поляризованный ландшафт»: полвека спустя. // Известия Российской академии наук. Серия географическая. 2002. № 3. -С. 467–480.

9. Abdug'aniev O.I. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimini takomillashtirish va ulardan foydalanishning geoeologik asoslari (Farg'ona vodiysi misolida) // G.f.d. (DSc) ilm. dar. olish uchun taqdim. et. diss. –T., 2023. –291 b.

10. Баранов В.А. «Теоретические основы экологической оптимизации ландшафта» Электронный научно-практический журнал // Сельское, лесное и водное хозяйство. 2012. № 9 [Электронный ресурс]. URL: <https://agro.snauka.ru/2012/09/520>

11. Соколов А.С. "Ландшафтное разнообразие: теоретические основы, подходы и методы изучения". <https://cyberleninka.ru/article/n/landshaftnoe-raznoobrazie-teoreticheskie-osnovy-podhody-i-metody-izucheniya>

12. Jakub Melicher, Jana Špulerová. "Application of Landscape-Ecological Approach for Greenways Planning in Rural Agricultural Landscape" *Environments* 2022,9,30. <https://doi.org/10.3390/environments9020030>

13. Гвоздецкий Н.А. Основные проблемы физической географии. –М.: «Высшая школа», 1979. –С. 91-109, 222.

14. Хасанов Р.А. "Tabiiy landshaftlarning antropogen modifikatsiyalanishi va agrolandshtlar o'rganilish tarixi"//Экономика и социум, г.Саратов, ул.Волжская, 28. №12 (115), 2023 www.iupr.ru

15. www.eco.gov.uz

REZYUME. Maqolada landshaftlar va uning xilma-xilligi hamda undan foydalanish istiqbollari haqida so'z boradi. Shuningdek, landshaftning geografik bilimlar tizimidagi o'rni, fundamental va amaliy ahamiyati tahlil qilinib, landshaftlardan foydalanishda yondashuvlarning o'ziga xos tomonlarini aniqlashning asosiy usullariga urg'u beriladi.

РЕЗЮМЕ. В статье говорится о ландшафтах и их разнообразии, а также перспективах их использования. Также анализируется роль, фундаментальное и практическое значение ландшафта в системе географических знаний, подчеркиваются основные методы определения конкретных аспектов подходов к использованию ландшафтов.

SUMMARY. The article talks about landscapes and its diversity, as well as prospects for its use. Also, the role, fundamental and practical importance of the landscape in the system of geographical knowledge is analyzed, and the main methods are emphasized of determining the specific aspects of the approaches to the use of landscapes.

QORAQALPOG'ISTONDA AHOLIGA XIZMAT KO'RSATISH SOHALARI HUDUDIIY KLASTERLARINING SHAKLLANISHI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH

K.K.Uzakbaev – katta o'qituvchi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Sh.B.Qurbonov – geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Tayanch so'zlar: ijtimoiy soha, aholiga xizmat ko'rsatish, hududiy klasterlar, Nukus klasteri, Xo'jayli klasteri, Chimboy klasteri, Qo'ng'iro't klasteri, To'rtko'l-Beruniy klasteri.

Ключевые слова: социальная сфера, обслуживание населения, территориальные кластеры, Нукусский кластер, Ходжейлийский кластер, Чимбайский кластер, Кунградский кластер, Турткуль-Берунийский кластер.

Key words: social sphere, public service, territorial clusters, Nukus cluster, Khodjeyli cluster, Chimbay cluster, Kungrad cluster, Turtkul-Beruni cluster.

Kirish. O'zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning asosiy tamoyillaridan biri kuchli ijtimoiy siyosatdir. Mamlakatimizda fuqarolarning ijtimoiy manfaatlarini himoya qilish, har bir oilaning farovonligini ta'minlash bo'yicha keng qamrovli choralar amalga oshirilmoqda. Xususan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari – pensionerlar, nogironlar, ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalar, ishsizlar, o'quvchi-yoshlarni ijtimoiy himoya qilish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha faol siyosat olib borilmoqda.

Ijtimoiy soha, xususan aholiga xizmat ko'rsatish sohalari, korxona va tashkilotlarining faoliyati aholining turmush sifati va tarziga, farovonligiga, iste'mol darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. aholiga xizmat ko'rsatish sohalari tarkibiga savdo, umumiy ovqatlanish, uy-joy kommunal xo'jaligi, maishiy xizmat ko'rsatish, ijtimoiy xizmat

ko'rsatish va ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy sug'urta va pensiya ta'minoti, sog'liqni saqlash, rekreatsiya va turizm, jismoniy tarbiya va sport, ta'lim, madaniyat va san'at, ommaviy axborot vositalari kabi tarmoqlar kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni [1], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda "Aholiga madaniy xizmat ko'rsatish darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-406-son Qarori [2], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son -2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi Farmonining 1-ilova -IV. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish bo'limi 37-70 maqsadlarining barchasida respublikamiz hududlarida ijtimoiy sohalarni

jadal rivojlantirish bo'yicha aniq maqsad va vazifalar belgilangan [3]. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-fevraldagi "Qoraqalpog'iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi bandligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-66-son Qarorida Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarida sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasining kelgusi besh yildagi istiqbollarini hamda har bir tuman va shaharning «o'sish nuqtalari»ni belgilash, ijtimoiy sohani rivojlantirish orqali aholi salomatligi hamda turmush darajasini yanada yaxshilash chora-tadbirlari ko'rsatib berilgan [4].

Ishning maqsadi va vazifalari. Qoraqalpog'iston Respublikasining shahar va qishloq tumanlarida statistik ma'lumotlar hamda aholi bilan o'tkazilgan sotsiologik so'rovnomalar va suhbatlar asnosida tumanlararo markazlarning aholiga xizmat ko'rsatish markazlari sifatidagi ta'sir areallari (zonalari) aniqlash va aholiga xizmat ko'rsatish sohalarining hududiy klasterlari ajratish ishning maqsadi hisoblanadi. Qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalar** belgilandi: Qoraqalpog'iston Respublikasi aholi punktlari orasida masofalarni aniqlash; qishloq tumanlari orasida demografik salohiyatning keskin farqlanishini tahlil qilish; ijtimoiy geografik omillarni o'rganish; hududiy klasterga ajratish mezonlarini belgilash; hududiy klasterlarni ajratish.

Asosiy qism. Qoraqalpog'iston Respublikasi hududining kattaligi, aholi punktlari orasida masofalarning nisbatan uzoqligi, qishloq tumanlari orasida demografik salohiyatning keskin farqlanishi va boshqa ijtimoiy geografik omillar aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini hududiy tashkil etilishiga jiddiy tarzda ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, aholi soni kam, zichligi past bo'lgan shimoliy tumanlarda xizmat ko'rsatish sohalarining keng kamroqli, ko'p tarmoqli tarzda tashkil etish ancha mushkul masala hisoblanadi. Shu bois, mintaqada atrofidagi ijtimoiy va demografik salohiyati kichikroq bo'lgan tuman, OFY va MFY larga xizmat ko'rsatadigan tumanlararo markazlarning o'rni juda katta. Ayniqsa, bu borada ko'p tarmoqli (majmual) tumanlararo xizmat ko'rsatish hududiy markazlari tarzda rivojlanib borayotgan Xo'jayli, Qo'ng'iro't (Oltinko'l shaharchasi bilan), Chimboy, To'rtko'l va Beruniy shaharlarining ta'sir doirasi va hududiy ahamiyati e'tiborga loyiqdir.

Ushbu aholi manzilgohlari muayyan doira (radius, areal) dagi hududlarga xizmat ko'rsatayotgan bo'lib, Qoraqalpog'iston Respublikasida buning ta'sirida aholiga xizmat ko'rsatish sohalarining bir nechta *hududiy klasterlari* shakllandi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining shahar (Nukus shahri) va qishloq tumanlarida olib borilgan o'rganishlar, aholi bilan o'tkazilgan sotsiologik so'rovnomalar va suhbatlar asnosida yuqorida sanab o'tilgan tumanlararo markazlarning aholiga xizmat ko'rsatish markazlari sifatidagi ta'sir areallari (zonalari) aniqlandi. Shuningdek, Nukus shahriga yaqin joylashgan ayrim tuman, OFY va MFY aholisi kundalik ehtiyojlarni qondirish uchun Nukus shahridagi xizmat ko'rsatish obyekti va muassasalaridan foydalanishi ham aniqlab olindi.

Natijada Qoraqalpog'iston Respublikasida aholiga xizmat ko'rsatish sohalarining quyidagi 5 ta hududiy klasterlari ajratildi (rasm): 1) Nukus (markazi – Nukus shahri); 2) Xo'jayli (markazi – Xo'jayli shahri); 3)


Chimboy (markazi – Chimboy shahri); 4) Qo'ng'iro't (markazi – Qo'ng'iro't shahri (Oltinko'l shaharchasi bilan birga)); 5) To'rtko'l-Beruniy (markazlari – To'rtko'l va Beruniy shaharlari).

Nukus klasteri Nukus shahri, Nukus va Amudaryo tumanlari to'raligicha, Taxiotosh tumanining Taxiotosh shahri, Kegeyli tumanining Xalqobod shahri va Juzimbog' OFY hududlarini qamrab oladi. Bu hududiy klasterning aholisi ta'lim, sog'liqni saqlash va, ayniqsa, savdo yo'nalishidagi xizmatlardan foydalanish maqsadlarida ko'p hollarda bevosita Nukus shahriga borishadi.

Hududiy klasterning doimiy aholisining soni (01.01.2024-yil holatiga) 680,85 ming kishini tashkil etib, 473,29 ming kishi shahar joylarida, 207,56 ming nafar aholi esa qishloq joylarida istiqomat qiladi. Hududiy klaster markazi, Nukus shahrining doimiy aholisining soni esa 339,17 ming kishiga tengdir [6].

Xo'jayli klasteri Xo'jayli tumani, Qonliko'l tumanining markazi (Qonliko'l shaharchasi), Qonliko'l, Navro'z, Bo'stan, Janaqala, Qosjap OFYlari, Taxiotosh tumanining Keneges, Naymanko'l, Sarayko'l OFYlari, Shumanay tumanining ma'muriy markazi – Shumanay shahri hamda Aqjap, Mamiy, Begjap va Birlashik kabi OFYlar doirasida shakllangan. Bu klasterni tashkil etadigan hududlar aholisi turli xizmatlardan foydalanish maqsadida, ayniqsa, savdo va ta'lim borasida Xo'jayli shaharga borishadi. Xo'jayli klasterining doimiy aholisi, 2024-yil boshi holatiga ko'ra, 228,13 ming kishiga teng bo'lib, 113,35 ming kishi shahar aholisi, 114,78 ming kishi qishloq aholisi sanaladi. Markaziy shahar – Xo'jaylida esa 75,54 ming kishi istiqomat qiladi. Bu mintaqada aholi soni jihatidan Nukusdan keyingi ikkinchi shahar hisoblanadi.

Chimboy klasteri Chimboy, Taxtako'pir, Qorao'zak tumanlari to'liq, Kegeyli tumanining asosiy qismi (Juzimbog' OFY va Xalqobod shahridan tashqari), Bo'zatov tumanining asosiy qismi (Aspantay OFYdan tashqari), Mo'ynoq tumanining Qozoqdaryo OFY hududlarini o'z ichiga oladi. Mazkur klasterni tashkil etadigan hududlar aholisi turli xizmatlardan foydalanish maqsadida, ayniqsa, savdo, ta'lim va sog'liqni saqlash borasida Chimboy shahriga borishadi. Chimboy klasterining doimiy aholisi, 2024-yil boshi holatiga ko'ra, 288,67 ming kishiga teng bo'lib, 109,03 ming kishi shahar aholisi, 179,64 ming kishi qishloq aholisi sanaladi. Markaziy shahar – Chimboyda esa 56,46 ming kishi istiqomat qiladi.



1-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasi aholiga xizmat ko'rsatish sohalarining hududiy klasterlari xaritasi. Xarita Uzakbaev K.K. tomonidan tuzilgan.

Qo'ng'iro't klasteri tarkibiga Qo'ng'iro't tumani, Mo'ynoq tumanining asosiy qismi (Qozoqdaryo OFY dan tashqari), Shumanay tumanining Aybuyir, Diyqanabad, Ketenler, Sarmanbayko'l OFYlari, Qonliko'l tumanining Besko'pir, Jayhun, Arzimbetqum OFYlari, Bo'zatov tumanining Aspartay OFY kabi hududlar kiradi. Bu hududiy klasterning markazi Qo'ng'iro't shahri hisoblanib, aholiga xizmat ko'rsatishning hududiy markazi sifatida u o'ziga hududiy jihatdan bevosita tutash (birlashib ketgan desa ham bo'ladi), aholi soni 30 ming kishidan ziyod bo'lgan Oltinko'l shaharchasi bilan birga yagona markaz tarzida ko'rilishi maqsadga muvofiq. Qo'ng'iro't klasteri doirasida 200,05 ming nafar doimiy aholi istiqomat qilib, 100,87 ming kishi shahar aholisi, 99,18 ming kishi esa qishloq aholisi hisoblanadi. Klaster markazi sifatida ajratilgan Qo'ng'iro't-Oltinko'l tizimida 73,64 ming kishi yashaydi (Qo'ng'iro't shahrida 41,98 ming nafar, Oltinko'l shaharchasida 31,66 ming nafar aholi).

To'rtko'l-Beruniy klasteri Qoraqalpog'iston janubidagi 3 ta qishloq ma'muriy tumanlari – Beruniy, Ellikqal'a va To'rtko'l tumanlarini birlashtiradi. Bu hududiy klasterning o'ziga xos jihati shundaki, bitta shaharni uchala tuman uchun yetakchi ahamiyatga ega bo'lgan bitta tumanlararo xizmat ko'rsatish markazi sifatida ajratib bo'lmaydi. Bunga uchala tumanning demografik salohiyati nisbatan yuqoriligi va bir-biriga yaqin darajada ekanligi asosiy sababdir. Bu hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimni ma'lum daraja va mazmunda *To'rtko'l-Beruniy konurbatsiyasi* deb ajratish mumkin.

To'rtko'l-Beruniy hududiy klasterining jami doimiy aholisining soni 604,96 ming kishi bo'lib, 178,84 ming kishi shahar, 426,12 ming nafar aholi qishloq joylarida istiqomat qiladi.

Respublikada shakllangan aholiga xizmat ko'rsatish sohasining hududiy klasterlari, avvalambor, ularning markaziy shaharlari sifatida rivojlanayotgan tumanlararo markazlarning ijtimoiy infratuzilmasini yaxshilash, zamonaviylashtirish, ko'p tarmoqli, majmualar tarzida shakllantirish dolzarb muammo sifatida e'tirof etish mumkin. Bu yo'nalishdagi muammolarning dolzarbligi hududiy klasterlarning demografik salohiyati, uning o'sib borishi, respublika poytaxti, Nukus shahriga nisbatan yaqin yoki uzoqligi kabi omillar ta'sirida shakllanadi va ularning echilishi mahalliy aholiga muhim ijtimoiy qulayliklarni

ta'minlab berilishini belgilab beradi. Shuningdek, Nukus shahrining ijtimoiy infratuzilmasiga tushayotgan yukning tobora ortib borayotganligi ham mintaqadagi tumanlararo markazlarida aholiga xizmat ko'rsatish sohalari va ularning infratuzilma obyektlarini rivojlantirishni taqozo etadi. Boshqacha qilib aytganda, hududiy klasterlarning markaziy shaharlari atrofida hududlar aholisiga zamonaviy ijtimoiy infratuzilmani yaqinlashtirib berib, ayni paytda Qoraqalpog'iston poytaxtining uy-joy va kommunal, ijtimoiy, yo'l-transport infratuzilmasiga tushayotgan yukning optimallashtirilishiga imkon beradi [5].

Xulosa. Qoraqalpog'iston Respublikasida atrofida ijtimoiy-iqtisodiy va demografik salohiyati kichikroq bo'lgan tumanlar yoki ularning ayrim qismlariga xizmat ko'rsatadigan tumanlararo markazlarning o'rni o'ziga xos bo'lib, ularning negizida mintaqada 5 ta aholiga xizmat ko'rsatish sohasining hududiy klasterlari shakllandi. Bular: Nukus (markazi – Nukus shahri), Xo'jayli (markazi – Xo'jayli shahri), Chimboy (markazi – Chimboy shahri), Qo'ng'iro't (markazi – Qo'ng'iro't shahri (Oltinko'l shaharchasi bilan birga) va To'rtko'l-Beruniy (markazlari – To'rtko'l va Beruniy shaharlari). Joylarda o'tkazilgan kuzatuv va so'rovnomalar asosida ushbu 5 ta klasterning hududiy tarkibi va chegaralari aniqlanib, maxsus mavzudagi karta tuzildi. Statistik ma'lumotlar asosida har bir klaster va uning markaziy shahrida yashovchi doimiy aholining soni hisoblab chiqildi. Shu bilan birga, har bir hududiy klasterda xizmat ko'rsatish sohalari rivojlanishi va hududiy tashkil etilishini takomillashtirish yuzasidan sohalar kesimida takliflar ilgari surildi.

Umuman olganda, tumanlararo markazlar, aholiga xizmat ko'rsatish sohalari hududiy klasterlarining markazlari va tayanch xizmat ko'rsatish markazlarini rivojlantirish, u yerdagi infratuzilma obyektlarini ko'paytirish, zamonaviylashtirish, xizmatlar assortimentini kengaytirish Qoraqalpog'istondagi o'rta shaharlarning shaharsoz salohiyatining mustahkamlanishiga, ularning katta shaharlar toifasiga o'tib ketishiga zamin yaratadi. Servis infratuzilmasini tuman va qishloqlarga yaqinlashtirish esa mahalliy aholining turmush sharoitini yaxshilashga va, ayni damda, Nukus shahrining ijtimoiy infratuzilmasiga tushayotgan yukning kamayishiga imkoniyat beradi. Shu orqali mintaqada aholiga xizmat ko'rsatish sohalari hududiy tashkil etilishining takomillashuviga erishiladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6600413>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrdagi “Aholiga madaniy xizmat ko'rsatish darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-406-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-6713092>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son -2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-fevraldagi “Qoraqalpog'iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi bandligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-66-son Qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-6797659>.
5. Qurbonov Sh.B., Uzakbaev K.K., Atabayev A.A. Qoraqalpog'iston Respublikasida aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini hududiy tashkil etish masalalari. // «Fan va jamiyat», -Nukus: 2024. 39-42-b.
6. www.stat.uz

РЕЗЮМЕ. Мақоллада Қорақалпоғ'истон Республикасида aholiga xizmat ko'rsatish sohalari geografiyasi, uning asosiy yo'nalishlari, hududiy va davriy xususiyatlari ochib berilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье даётся характеристика развития географии сферы обслуживания в Республике Каракалпакстан, основных направлений исследования территориальной организации этой отрасли.

SUMMARY. The article describes the geography of public service sectors in the Republic of Karakalpakstan, its main directions, territorial and periodic features.